

Bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.

Усманова М., Жиззах ДПИ, катта ўқитувчи

Эсанбоева Муштарий, Жаҳон тиллари

университети Инглиз филологияси факультети 4 -курс

талабаси

Annotatsiya : Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik asoslari yoritib berilgan va muloqotni shakllantirishga xizmat ko'rsatuvchi mashg'ulotlar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, diologik nutq, muloqot ko'nikmalari, nutqiy ko'nikmalar.

Аннотация : В данной статье описываются психологические основы формирования коммуникативных навыков у детей дошкольного возраста и даются рекомендации по упражнениям, которые помогают сформировать общение.

Ключевые слова: дети дошкольного возраста, диалогическая речь, коммуникативные навыки, разговорные навыки.

Annotation : This article describes the psychological foundations of the formation of communication skills in preschool children and provides recommendations on exercises that help to shape communication.

Key words: preschool children, dialogical speech, communication skills, conversational skills.

Кириш. Maktabgacha ta'lim dasturida diologik nutqqa o'rnatish ko'zda tutilgan. Dialogik nutqni o'zlashtirish ishlari muloqot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Dialog – ijtimoiy o'zaro harakatning murakkab turi. Ayrim hollarda dialogda qatnashish, monologik ifoda tuzishdan qiyinroq bo'ladi. O'zi aytmoqchi bo'lgan gaplar va savollarni o'ylash begona nutqni qabul qilish bilan kechadi. Dialogda qatnashish murakkab malakalarga ega bo'lishni talab qiladi: fikrni eshitishni va to'g'ri tushunishni;

o'zining fikrini to'g'ri shakllantirib; til vositalari bilan to'g'ri ifodalashni; suhbatdosh fikri ketidan nutqiy o'zaro harakat mavzusini o'zgartira olishni; ma'lum xissiy ohangni saqlashni; nutq shaklini to'g'riligini nazorat qilishi; o'zini ham nutqiga quloq solishni; agar lozim bo'lsa mos o'zgartirish va kuzatishlar kirita olishi.

Натижа ва мулоҳазалар. Dialogik malakalarni bir nechta guruhlarni ajratish mumkin:

1. Xususiy nutqiy ko'nikmalar:

- Muloqotga kirishish (band yoki boshqalar bilan gaplashayotgan, notanish yoxud tanish kimsa bilan qachon va qanday gap boshlashni bilish);

- Muloqotni davom ettirish va tugatish (muloqot holati va sharoitini hisobga olish;

suhbatdoshni qayta tinglash va eshitish;

muloqotda faollik ko'rsatish qayta so'rash; o'z nuqtai nazarini isbotlash; suhbat mavzusiga munosabat bildirish – solishtirish, o'z fikrini bildirish, misollar keltirish, baholash, rozi bo'lish yoki norozilik bildirish savol-javob qilish; fikrlarini mantiqiy, bog'liq ravishda bildirish;

- Me'yoriy tempda ifodali gapirish, dialog oxangidan foydalanish.

2. Nutqiy etiket ko'nikmalari. Bunga: murojaat, tanishish, salomlashish, e'tibor tortish, taklif, iltimos, rozilik va bekor qilish, kechirim so'rash, shikoyat, hamdardlik, qo'llab-quvvatlamaslik, tabrik, minnatdorchilik, hayrlashish va boshqalar kiradi.

3. 3-5 kishilik guruhda, juft bo'lib, jamoada muloqot qila olish ko'nikmasi.

4. Birgalikda harakat qilish rejasini tuzishda natijalarga erishish va ularni muhokamasida muloqot qilish mavzu muhokamasida qatnashish ko'nikmasi.

5. Nutqiy bo'lmagan (noverbal) ko'nikmalar – yuz, qo'l harakatlardan

o‘rinli foydalanish. YOsh guruhlarga ko‘ra dialogik nutqqa qo‘yiladigan talablar mazmunini ko‘rib chiqish lozim. Muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi mashg‘ulotlarni o‘tkazsa buladi.

1-mashg‘ulot

Maqsadi: Bolala guruhlarida atrofdagilarning nutqini tushunish va bolalarning faol nutqidan muloqot vositasi sifatida foydalanish malakalari o‘rgatiladi. Mashg‘ulotning borishi: Bolalarga iltimos va istaklarni so‘z bilan ifodalashga, kattalarning ayrim (Bu kim? Nima qilyapti? Qanday? Qanaqa?) savollariga javob berishga o‘rgatadilar. Bolada faol nutqini rivojlantiradilar, turli sabablar bilan bolalar kattalarga murojaat qilishni o‘rgatadilar, savol berish malakasini shakllantiradilar.

2-mashg‘ulot

Maqsadi: O‘z tassurotlari bilan bo‘lishishga nisbatan ehtiyojni tarbiyalash.

Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi har bir kichkintoy kattalar va bolalar bilan oson va mustaqil muloqotga kirisha olishlariga erishishi lozim, bolalarga o‘z iltimoslarini so‘z bilan ifodalashga, kattalar savoliga tushunarli tarzda javob berishga o‘rgatishi kerak, boshqa bolalar bilan so‘zlashishga sabab ko‘rsata olishi zarur. O‘z tassurotlari bilan bo‘lishishga nisbatan ehtiyojni tarbiyalash, nima qilgani, qanday o‘ynagani haqida hikoya qila olishni, nutqiy etiket oddiy formulalardan (salomlashish, bog‘chada va oilada xayrlashish) foydalanishni tarbiyachi o‘rgatishi, yaqin atrofidagi voqea-hodisalar bo‘yicha bolalarni savol berishga urinishlarini rag‘batlantirishi kerak.

Хулоса. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish ijtimoiy jihatdan muhimdir. Muloqot ko‘nikmalarining, dialogik nutqning yo‘qligi yoki etishmasligi shaxs rivojlanishidagi turli buzilishlarga olib keladi, atrofdagi insonlar bilan o‘zaro harakatlanishdagi muammolarining o‘shishiga olib keladi.

2. Ota-onalar har doim ham kundalik hayotda bolalar bilan to'laqonli nutqiy muloqot o'rnatishga e'tibor bermaydilar. Muloqot rasmiy xarakterga ega bo'ladi, shaxsiy mazmunga ega bo'lmaydi. Tarbiyachining ko'p aytgan so'zlari bolada javob ta'sirini uyg'otmaydi, dialogik nutq rivojlanishiga xizmat ko'rsatuvchi variantlar etishmaydi. SHu sababli maktabgacha tarbiya muassasasidagi mashg'ulotlar kuzatilganda bolalar diqqatsiz, bee'tiborligi ma'lum bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arushanova A. Organizatsiya dialogicheskogo obshcheniya doshkolnikov so sverstnikami // Doshkolnoe vospitanie. – 2001. - №5. – S. 51-61.
2. Maqsudova M. Muloqot psixologiyasi.-T. Fan. 2007. -129 b.
3. Maxfuza. (2021). OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING O'ZARO HAMKORLIGI SHAKLLARI. *Maktabgacha ta'lim jurnali*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3063>
4. Maxfuza. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM-TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING O'RNİ. *Maktabgacha ta'lim jurnali*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2729>
5. Usmanova, M. (2020). THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
6. Usmonova, M. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARda ESTETIK HIS-TUYG'ULARINI TARBIYALASH .: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARda ESTETIK HIS-TUYG'ULARINI TARBIYALASH . *Maktabgacha ta'lim jurnali*, 2(2). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/852>